



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

“ANOR” HIKOYASI TURK VA RUS TILLARIDA

Xayrulla Hamidov

Filologiya fanlari doktori, Professor v.b.,

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Email: hamidovx@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: roman, qissa, hikoya, badiiy so‘z, maqol, ibora, badiiy tarjima, qardosh tillar.

Annotatsiya: Atoqli o‘zbek adibi, badiiy so‘z ustasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub roman, qissa va hikoyalarning turk hamda rus tillariga qilingan tarjimalari tahlil etilgan bir necha maqolalarimiz 2021–2023-yillarda turli jurnal va to‘plamlarda nashr etilgan. Ushbu maqola esa adib asarlari tahlilga tortilgan ilmiy ishlarimizning navbatdagisidir. Unda badiiy so‘z ustasining mashhur “Anor” hikoyasi tarjimalari ko‘rib chiqiladi. Hikoyada qo‘llanilgan maqol, matal va iboralarning tarjimalari tahlil etilib, asliyatga xos xususiyatlarning tarjimonlar tomonidan qay saviyada qayta yarata olingani, erishilgan yutuqlar va ijodiy mehnat jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ochiq-oydin ko‘rsatib beriladi. Qiyo-siy tahlil asosida hikoyaning tarjima matnlariga qanchalik mos ekanligi aytilib, ayrim munozarali masalalarga yechimlar izlanadi. Kerakli o‘rinlarda amaliy takliflar ilgari suriladi. Shuningdek, tarjimani amalga oshirishning qulay jihatlari bilan bir qatorda o‘ziga yarasha murakkabliklari borligi, o‘zbek va turk tillarining bir til guruhiga mansubligiga qaramay, ko‘pchilik birliklarning kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etishi asarlarni o‘g‘irishda ijodkordan o‘ta ehtiyotkor bo‘lishni talab qilishi zarurligi ta’kidlanadi va, albatta, qardosh tillararo tarjimalarda so‘zma-so‘z o‘g‘irmaning ba’zi o‘rinlarda o‘zini oqlashiga urg‘u beriladi.

THE STORY OF "POMEGRANATE" IS IN TURKISH AND RUSSIAN LANGUAGES*Khairulla Hamidov**Doctor of Philological Sciences, Professor,
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: novel, story, short story, literary word, proverb, phraseological unit, literary translation, related languages.

Abstract: In 2021-2023, several articles were published that analyzed the translations of novels, novels and short stories by the famous Uzbek writer and master of literary expression Abdullah Kahhor into Turkish and Russian. This article is our next scientific work, which analyzes the works of the named writer. It examines the translations of the famous story by the master of artistic expression A. Kahkhar "Pomegranate" into Turkish and Russian. The article also analyzes the translations of proverbs, sayings and expressions used in the story, talks about the extent to which the translators recreated the features of the original, talks about the achievements and creative work of the translators, and their shortcomings. Based on a comparative analysis, it is said how the story corresponds to the translated texts, and some controversial issues are resolved. Practical recommendations are put forward regarding the translation of the story, it is also emphasized that, in addition to the convenience of translation, there are also difficulties in translation, despite the fact that the Uzbek and Turkish languages belong to the same language group, the fact that most units differ in sometimes justification of origin requires. The translator must be very careful when recreating the work, and, of course, special emphasis is placed on the fact that when translating from related languages, a literal translation is often allowed, which sometimes justifies itself.

ИСТОРИЯ О «ГРАНАТЕ» НА ТУРЕЦКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ*Хамидов Хайрулла**Доктор филологических наук, и.о. профессор,
Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: роман, повесть, рассказ, художественное слово, пословица, фразеологизм,

Аннотация: В 2021-2023 годах было опубликовано несколько статей, в которых проанализированы переводы романов, повестей и рассказов известного узбекского писателя и мастера художественного слова

художественный перевод,
родственные языки.

Абдуллы Каххара на турецкий и русский языки. Данная статья является очередной научной работой, в которой анализируются произведения названного писателя. В ней рассматриваются переводы знаменитого рассказа мастера художественного слова А.Каххара «Гранат». В статье также анализируются переводы пословиц, поговорок и выражений, использованных в рассказе, идет речь о том, насколько переводчики воссоздали черты оригинала, говорится о достижениях и творческой работе переводчиков, об их неточностях. На основе сравнительного анализа говорится, насколько рассказ соответствует переведенным текстам, и решаются некоторые спорные вопросы. Выдвигаются практические рекомендации по поводу перевода рассказа, также подчеркивается, что, помимо удобств перевода, имеются и сложности в переводе, несмотря на то, что узбекский и турецкий языки относятся к одной языковой группе, тот факт, что большинство единиц различаются по происхождению, требует от переводчика быть очень осторожным при воссоздании произведения, и, конечно особый акцент делается на том, что в при переводе с родственных языков часто допускается дословный перевод, который часто оправдывает себя.

KIRISH

2021–2023-yillarda atoqli o‘zbek adibi, badiiy so‘z ustasi Abdulla Qahhor qalamiga mansub roman, qissa va hikoyalarning turk, rus tillariga qilingan tarjimalariga qiziqish o‘zgacha tus oldi. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida olib borilgan tarjimashunoslik tadqiqotlarida e‘tibor adib asarlari tarjimalari tahliliga bag‘ishlangan maqolalarga ko‘proq qaratila boshlandi. O‘zbek kitobxonlari orasida mashhur “Anor” hikoyasining turk va rus tillariga qilingan tarjimalari tadqiqi ushbu ishlarning navbatdagisi hisoblanadi. Tadqiqotda “Anor” hikoyasida qo‘llanilgan maqol, matal va iboralar, xos so‘zlar, shuningdek, ayrim badiiy san’atlarning tarjimalarda berilishi masalalari ko‘rib chiqilib, asliyatga xos xususiyatlarning - tarjimonlar tomonidan qay saviyada qayta yarata olingani, erishilgan yutuqlar va ijodiy mehnat jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aniq misollar vositasida ko‘rsatib beriladi. Qiyosiy tahlil asosida hikoyaning tarjima matnlariga qanchalik mos ekanligi aniqlanib, ayrim munozarali masalalarga yechimlar izlanadi. Kerakli o‘rinlarda amaliy takliflar ilgari suriladi.

TADQIQOTNING USULLARI

Ma‘lumki, o‘zaro yaqin tillar, jumladan, o‘zbek tilidan turk tiliga tarjimini amalga oshirish bir talay qulayliklarga ega. Shu bilan birga ushbu faoliyatning o‘ziga yarasha murakkabliklari ham bor. Ko‘pchilik birliklarning kelib chiqish nuqtayi nazaridan farqlilik kasb etishi ikki qardosh til orasida o‘girish ishlari tarjimonlardan ehtiyotkor bo‘lishni talab qiladi. Ushbu maqola oldiga qo‘yilgan maqsad badiiy tarjimada maqol, matal va iboralar, shuningdek, ayrim badiiy san’atlarning tarjimalarda berilishi masalasini Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasining turk va

rus tiliga qilingan tarjimalari asosida ko‘rib chiqish, tarjima jarayonida ijodkorlar erishgan yutuqlar va ular e‘tiboridan chetda qolgan ba‘zi xususlarni ta’kidlash hamda kerakli taklif va tavsiyalar berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqola oldiga badiiy tarjimada so‘z sinonimlari qanday tanlangani, qaysi usullardan foydalanilganini ko‘rsatish vazifalari ham qo‘yilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy va tahliliy-qiyosiy metodlardan foydalanildi. Darhaqiqat, ushbu maqola uchun material sifatida olingan asar, Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi turk dunyosining bir necha tiliga, jumladan turk va rus tillariga o‘g‘irilganligini alohida ta’kidlash joiz.

NATIJALAR

«Anor» – o‘zbek adabiyotining eng durdona asarlaridan biridir. “O‘zbek hikoyachiligining cho‘qqilaridan biri hisoblanadigan «Anor» hikoyasida Abdulla Qahhorning obraz yaratish borasidagi yuksak mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘tmish voqealaridan xabar beruvchi ushbu asarda boshqorong‘i xotiniga ikki dona anor topib bera olmagan Turobjon va «birdan bir orzusi – anor» bo‘lib qolgan ayol obrazlari san‘atkorona yaratilgan”¹. Hikoya quyidagi epigraf – ikki satrdan iborat xalq qo‘shig‘i bilan boshlanadi:

*Uylar to‘la non, och-nahorim bolam,
Ariqlar to‘la suv, tashnayi zorim bolam (O‘tmishdan).*

Epigraf rus tilida so‘zma-so‘z berilgan (*“Вокруг обилье плодов, а ты голодаешь, дитя! Арыки полны воды, а ты умираешь от жажды, дитя! (Из прошлого”* va tarjimada asliyatdagi ma‘no-mazmun o‘z aksini topgan.

Ushbu satrlar turk tiliga ham so‘zma-so‘z o‘g‘irilgan: *“Evler ekmekle doldu aç bi açım yavrum, Kanallar suyla doldu çok susamışım yavrum” (Koşuk)*. Tarjimada *“tashnayi zorim bolam”* birikmasi *“çok susamışım yavrum”* (ya‘ni, “juda chanqaganman, bolam”) tarzida noto‘g‘ri berilgan. Bu ikki misra she‘r-epigrafni *“Evler ekmekle dolu, karnı aç yavrum benim, Harklar suyla dolu, susuz kalmış yavrum benim* (Eski bir türküden) tarzida bergan ma‘qul.

Abdulla Qahhor kambag‘al insonlar obrazini yaratar ekan, bu insonlarning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, o‘y-xayollaridagi har bir iker-chikirga, detalga ma‘no yuklaydi, deya ta’kidlaydi adabiyotshunos S.Quronov² va “Anor” hikoyasidan quyidagi misolni keltiradi: *“Turobjon do‘ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo‘lganida ko‘zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to‘rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!”*³

Adibning boshqa asarlarida bo‘lgani kabi ushbu asarda ham juda ko‘p xos so‘zlar (yaktak, do‘ppi, to‘n, kavush-mahsi, samovar, obrez va b.), maqol va iboralarga duch kelamiz. Bir o‘zbek yigitining og‘ir moddiy ahvoli anglashilib turgan yuqoridagi jumlada ikki xos so‘z (do‘ppi, yaktak), ikki ibora (ko‘zi tushdi, yuragi achidi) qo‘llanilgan. Hatto “uch-to‘rt suv yuvilgan” birikmasida ham adibning so‘z qo‘llashdagi mahorati namoyon bo‘lgan.

Jumla turkchaga quyidagicha ag‘darilgan: *“Turabcan döppesini başından aldı ve eline vuracakken yırtılan yenini gördü, yüreği acıdı. Daha üç dört su yikanmış yeni yektandı!”*⁴. Jumla turk tilida yaxshi berilgan. Asliyat jumlasida ajratib ko‘rsatilgan so‘z va iboralarga

¹ Sadullo Quronov. «Anor» hikoyasida obraz yaratish mahorati. <https://quronov.narod.ru/smaq7.html>

² O‘sha maqola.

³ Qahhor Abdulla. Hikoyalar. –Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987. www.zyouz.com.

⁴ Kahhar A. Hikayeler, Çeviren Filiz Demirci. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010. – S.12.

kelinsa, “*do’ppi*” bir xos soʻz sifatida “*döppe*” deb oʻgirilgan (ammo uni “*doppu*” deb berish har jihatdan maʼqul, turk tilining singarmoniya qonuniga uygʻun boʻlar yedi). Yoki “*yaktak*” soʻzi ham hikoyada toʻrt oʻrinda qoʻllanilgan. Yuqorida keltirilgan (va yana bir oʻrinda) turkcha jumlada ushbu soʻzning “*yektan*” deb berilganini koʻramiz. Qolgan oʻrinlarda esa nimagadir “*yaktak*” soʻzi “*yektek*” deb berilgan. Turkcha lugʻatlarda bunday libos nomi uchramaydi, demak, u bir xos soʻz. Shunday ekan, “*yaktak*” soʻzini “*yektek*” deb berib, uni havolada izohlagan maʼqul edi. Bundan tashqari, “*koʻzi tushdi*” iborasi *gördü* (koʻrdi), *yuragi achidi* iborasi *yüreği acıdı* shaklida, “yangigina” soʻzi soddagina qilib “yeni” (yangi) deb oʻgirilgan.

Yuqoridagi oʻzbekcha jumlaning turk tiliga quyidagicha oʻgʻirish taklif etiladi: *Turabcan dop-pusunu başından alıp düzeltmek isterken gözü gömleğinin yırtılmış koluna ilişti ve yüreği acıdı: daha üç dört su yıkanmış yeni yeni gömlekti!*

Endi jumlaning rus tiliga qilingan tarjimasiga eʼtibor qaratamiz: “*Турабджан снял с головы тюбетейку и хотел стряхнуть с нее пыль, но увидел разорванный рукав и нахмурился; ятак был почти новый, всего несколько раз стиранный*” tarzida agʻdarilgan. Asliyat jumlasida ajratib koʻrsatilgan soʻz va iboralarga kelinsa, “*do’ppi*” bir xos soʻz boʻlsa-da, uni ruslar “*tyubeteyka*” deyishadi va bu hammaga yaxshi maʼlum. “*Yaktak*” soʻziga kelinsa, u ruscha matnda milliy xos soʻz sifatida “*yaxtak*” deb qoldirilgan. Faqat bu tarjimada adibga xos uslub sal xiralashgan. Chunki “yangigina *yaktak*” birikmasini “*yaxtak был почти новым*” deb emas, “*yaxtak был новеньким*” deb bergan maʼqul edi.

Quyida “*yaktak*” soʻzi qoʻllanilgan yana bir jumlaning turk va rus tillariga qanday berilganiga eʼtibor qaratamiz:

Asliyat: *Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktaning yangi zulfingga ilinib tirsakkacha yirtildi.*

Turkcha tarjimasini: *Turabcan telaş içinde koşa koşa içeri girerken kapının koluna takılan yektanın kolu dirseğine kadar yırtıldı.*

Taklif etiladigan turkcha varianti: *Turabcan telaş içinde koşarak içeri girerken kalemi yekteğinin kolu kapının koluna takılarak dirseğine kadar yırtıldı.*

Ruscha tarjimasini: *Турабджан, открывая калитку, так волновался, что зацепил рукавом ятака за железную щеколду и разорвал рукав до самого локтя.*

Demak, har qanday tarjimada ayrim soʻz yoki jumlaning gʻaliz berilishi asliyatdagi fikrning gʻaliz ifodalanishiga olib keladi. Bunday masʼuliyat tarjimon zimmasida turadi. Chunki, bir asarni qardosh tildan oʻgʻirish baʼzan turli oilaga kiruvchi (uzoq) tillardan tarjima qilishdan koʻra qiyinroq kechadi. Darhaqiqat, muallifning uslubiy oʻlchovlari, iboralari, qolaversa, badiiy tafakkurning talablari bilan bogʻliq vositalari, qochirimlarini tarjimada xuddi oʻziday qilib bera olishning, atama maʼnosini beradigan atama, ibora maʼnosini beradigan iborani topib joy-joyiga qoʻyishning oʻziga xos mashaqqatlari boʻladi.

Hikoyada qargʻish soʻzlarning tarjimalari alohida eʼtiborni talab qiladi.

Muhtojlik Turobjonni homilador ayoliga « – Ajab qildim, – dedi Turobjon titrab, – **jigarlaring ezilib ketsin!!**»⁵ deyish darajasigacha olib boradi. Bu jumla boshqorongʻi ayoliga anor topib berolmayotgan, ne-ne qiyinchilik bilan asal topib kelganda xotini uni rad etgan, yirtilgan yaktag-u, toʻkilgan joʻxoriga yuragi achigan Turobjonning alamini yengillashtirishi mumkin boʻlgan oxirgi najoti edi, – deya yozadi S.Quronov. Umuman olib qaraganda, turkcha

⁵ Qahhor Abdulla. Hikoyalar. – Toshkent, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti. 1987.

www.zyouz.com.

tarjimada ham (*Oh işte iyi ettim! Dedi Turabcan titreyerek... Ciğerlerin yezilip gitsin!*), ruscha tarjimada ham (*И хорошо сделал! – крикнул Турабджан, весь дрожа. – И пусть тебе все нутро сожжет!*) asliyatdagi mazmun yetkazib bera olingan. Shunga qaramay, jumla rus tilida “Так тебе и надо! – сказал Турабджан, весь дрожа. – И пусть тебе все нутро сожжет!” tarzida, turk tilida esa “– Ne güzel ettim! dedi Turabcan titreyerek... **Şu siğerlerin ezilip gitseydi!**” tarzida berilsa, asliyatga mos tarjima yuzaga kelar, nur ustiga a’lo nur bo’lar edi.

«Anor» hikoyasida tarjimashunoslar e’tiborini tortuvchi, hatto har kim har xil tushunishi ehtimoldan uzoq bo’lmagan yana bir jumla bor: “*Xotin turayotib baralla yig’lab yubordi. – Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong’i bo’lsam-chi!*”⁶ Ushbu gapdagi **boshqorong’i** so’zining (boshqorong’ilik – ot) turkcha muqobili “aşermek” (fe’l)dir. Ma’nosi: homiladorlikning ilk davrida ayol organizmida, ruhiyatida ro’y beradigan turli o’zgarishlar (biror narsani qo’msash yoki yoqtirmaslik) ifodasi.

Jumlaning turkcha tarjimasi quyidagicha: “*Kadın kalkarken hıçkırıklar boğazından dö-küliverdi: Yer yutasıca, Ne biçim çocuktur! Keşke baskaları gibi gulutaya, tuza, keseğe aşer-seydim...*” Tarjima yaxshi (agar uni teskari tarjima qilsak, quyidagi vaziyat yuzaga keladi: “*Ayol turayotib uning bo’g’zidan chinqiriq otilib chiqdi. – Yer yutsin, qanaqa bola bu!.. Koshki boshqalarga o’xshab gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong’i bo’lsaydim!*”), faqat o’zbek tilining ayrim shevalarida uchraydigan “**guluta**” (Gilvata | f. <g- o’tga chidamli loy] *geol.* Yumshoq, kulrang tog’ jinsi, gilmoya (xalq tabobatida tomoq og’rig’iga qarshi dori sifatida ishlatilgan) so’zi bir xos so’z sifatida tarjima qilinmasdan berilgan. Bundan tashqari, turk tarjimoni “balo” so’zini “bola” deb taxmin qilgan.

Gap ruschaga quyidagicha ag’darilgan: “*Ta, поднимаясь, всхлинула и зарыдала во весь голос. – Провалиться бы ему сквозь землю... что это за несчастье! Почему меня не тянет на соль, на мед⁷, как всех?*” O’zbek tilida ko’proq ayollar nutqida uchraydigan “yer yutkur” qarg’ish birikmasini rus tilida berishning bir necha yo’li bor. Bulardan biri, “Будь он проклят” бўлса, яна бири “Провалиться бы ему сквозь землю...” va h.k. Yoki “qanday balo ekan” birikmasining ham “*Что это за несчастье*” shaklida berilishi ham o’zini oqlaydi. Shu nuqtayi nazardan ruscha tarjimani ishonchli desa bo’ladi.

O’zbek tilida asosan ayollar nutqida uchraydigan **yer yutkur** qarg’ish so’zi qo’llanilgan asliyat jumlasining turkcha va ruscha tarjimalariga e’tibor beramiz:

Asliyat: – *Hali tug’ilmagan bolani yer yutkur deding-a, – dedi Turobjon borgan sayin tutaqib.*

Turkcha tarjimasi: – *Henüz doğmamış bir çocuğa “toprak alsın” dedin a sen, diye Turabcan öfkeyle oturduğu yerden söylendi.*

Taklif etiladigan turkcha varianti: – *Henüz doğmamış bir çocuğa “Allah kahretsin” demeye nasıl dilin döndü, anlatıyorum” – diye öfkeyle söyleniyordu Turabcan.*

Ruscha tarjimasi: – *Ты назвала несчастьем еще не родившегося ребенка! – возмущенно проговорил Турабджан⁸.*

Asardagi boshqorong’i ayol obrazi adib tomonidan yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bu haqida S.Quronov shunday yozadi: “Abdulla Qahhor hikoyani yozishidan bir necha yillar oldin

⁶ Ўша манба.

⁷ “тулута, туз, кесак” русча таржимада “соль, мед” (туз, асал) деб берилган.

⁸ Каххар Абдулла, Избранные произведения в 3-х томах. Том I. Рассказы и пьесы. Издательство литературы и искусств имени Гафура Гуляма. Ташкент: 1972. www.ziyouz.com kutubxonasi.

yon daftariga boshqorong‘i ayol haqida shunday yozib qo‘ygan: «Er xotiniga jannatning ta‘rifini qiladi. Xotinning ko‘ziga hovzikavsar va unda suzib yurgan baliqdan boshqa hech narsa ko‘rinmaydi. Xotin baliqqa boshqorong‘i». Adibning bu qaydlari, Turobjon Mullajon qozi va uning bog‘i haqida gapirayotgan paytidagi xotinning holatiga judayam o‘xshaydi: «U Mullajon qozining bog‘ini ko‘rgan emas, ammo ta‘rifini eshitgan... bog‘ emas anorzor»⁹.

Hikoyaning eng keskin nuqtasi hisoblangan quyidagi parcha va uning tarjimalarini tahlil qilib ko‘ramiz: *“Tansiq narsa, xursand bo‘larmikansan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O‘zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammaning jo‘jasi tushib ketgandi, shu jo‘jani yalaganman... Turobjonning bu so‘zlari xotining qulog‘iga notayin bir g‘uldirash bo‘lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo‘lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g‘uldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun, nima bo‘ldi-yu, uch so‘zni ravshanroq aytdi: «Jigarlaring ezilib ketsin», dedi”*¹⁰.

Parchaning turkcha tarjimasi quyidagicha: *“Az bulunur şey, mutlu olursun sanmıstım. Az bulunur değil mi? Ömründe kaç defa bal yedin ki? Ben ömrümde bir defa yemiştım: Şakir Hoca, tatlıcı, bal petek yaptırdığında kazana dayımın civcivi düşün gıtmıştı. Bu civcivi yalamıştım... Turabcan‘ın bu sözleri karısının kulağına notanın bir tınısı gibi giriyordu. Onun Turabcan‘la ev kurması üç yıldan beridir, nazarında, bu adam bu üç yıldan beri güldürerek geldi, şu anki de bunun devamıdır. Şuna bakınki bugün ne oldu da, şu sözü üstüne bastırarak söyledi: Çiğerlerin ezilsin!”*¹¹

Parchaning turk va rus tillariga qilingan tarjimalarida ajratib ko‘rsatilgan so‘z va birikmalar alohida e‘tiborni tortadi. Masalan, “tansiq narsa” deganda kam uchraydigan yegulik tushuniladi. Uni turkchada “Az bulunur şey” (kam topiladigan narsa) desa ham, “nadir bir şey” desa ham bo‘ladi. O‘zbekcha matndagi “Shokirxo‘ja” turkcha tarjimada “Shokir domla” (Şakir Hoca), “ammaning jo‘jasi” turkcha tarjimada negadir “tog‘amning jo‘jasi” (dayımın civcivi) bo‘lib qolgan. Yoki asliyatda “bu odam (ya‘ni, Turobjon) uch yildan beri g‘uldirab kelgan” bo‘lsa, turkcha matnda uning “uch yildan beri hammani kuldırab kelgan”i ta‘kidlangan. Buni soxta ekvivalent ham, tusmol ekvivalent deb ham bo‘lmaydi. Shunchaki tarjimonning diqqatsizligi, so‘zlarning mag‘zini chaqa olmaganligi yoki loqaydligiga yo‘yish mumkin bo‘ladiki, bunga aslo yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

Hikoyaning kalit iboralaridan biri bo‘lgan «Jigarlaring ezilib ketsin» qarq‘ish so‘zlarini turk tarjimoni F.Demirji bir o‘rinda “Çiğerlerin ezilsin!” deb sal qisqartirib o‘giran. Boshqa bir o‘rinda esa “Çiğerlerin ezilib gitsin!” deb so‘zma-so‘z bergan bo‘lsa-da, asliyatga to‘la muqobil tashkil eta olgan.

Shuningdek, turk tarjimoni Turobjonning “notayin bir g‘uldirashi” ni turkchaga “notanın bir tınısı” (musiqadagi notaning tovushi (tembr) deb o‘ylagan va tusmol muqobil bergan (demak, “notayin” va “g‘uldirash” so‘zlari turk tarjimoniga “notanish” ekan).

Turkcha matnda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni e‘tiborga olib, uni quyidagicha ag‘darish taklif etildi: – *Nadir bir şey, mutlu olursun sanmıştım. Yoksa üzıldün mü? Hayatın boyunca kaç defa bal yedin, söyle bakalım?.. Ben bir defa yemiştım: Şakir Hoca isimli şekerçi, bir gün bal kıvamı yaparken tenceresine halamın bir tane civcivi düşünmüştü. İşte o sıcak kıvamda pişmiş*

⁹ O‘sha maqola.

¹⁰ Qahhor Abdulla. Hikoyalar. – Toshkent, G‘a fur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1987. www.zyouz.com.

¹¹ Kahhar A. Hikayeler, Çeviren Filiz Demirci. – Toshkent, Mumtoz so‘z, 2010. – S.13–14.

civcivi yalamıştım... Turabcan'ın bu sözleri karısının kulağına bir sayıklama gibi giriyordu. Turabcan'la yevleneli üç sene oldu. O an bu adam bu üç sene boyunca hep sayıklıyor, ne dediği anlaşılıyordu. Şimdi söylediği şeyler de sanki o sayıklamanın devamıydı. Ama beklenmediği bir an şu üç sözü net bir ahenkle, üstüne basa basa söyledi ki hiç sayıklamaya benzemiyordu: "Ciğerlerin yezilip gitsin!"

Umumiy xulosaga kelishdan oldin parchaning ruscha tarjimasiga ham e'tibor qaratamiz: *"Думал, вот удача – жена обрадуется!.. Ты сколько раз в жизни ела мед? Турабджан говорил уже в примирительном тоне, без всякого раздражения, но жена его не слышала. Вернее, слышать-то слышала, да не улавливала смысла, воспринимала его речь как обычное недовольное бурчание. И все-то три года их жизни он вот так же недовольно бурчит себе под нос, и бывает трудно его понять. Но сегодня он ясно выговорил шесть слов: «И пусть тебе все нутро сожжет!»"¹²*

O'zbekcha parchadagi "tansiq narsa" rus tilida kontekstga moslab "удача" (omad) deb berilgan (Думал, вот удача – жена обрадуется!..) va buni ham oqlasa bo'ladi, chunki so'zma-so'z tarjima bu yerda ish bermaydi. Jumlaning ruschada « И пусть тебе все нутро сожжет!» berilganligi ham to'g'ri. Rus tarjimoni jumla boshida uchraydigan "uch so'z"ni vaziyatga ko'ra "шесть слов" deb berganiga ham e'tiroz bildirish to'g'ri bo'lmaydi (chunki o'zbekcha uch so'zdan iborat qarg'ish so'zini berishning boshqa iloji bo'lmagan).

"Anor" hikoyasida ijtimoiy vaziyat aks etgan yana bir muhim dialogga duch kelamiz. Undan ayoldagi ruhiy holatni yanada chuqurroq anglash mumkin:

– *Har narsaga ro'zg'or achchiq bo'la bersa... qiyinroq bo'lar, – dedi Turobjon yaktagini kiyayotib, – kambag'alchilik...*

– *Kambag'alchilik o'lsin! Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi.*

Ayolning shikoyat tarzida aytgan atigi bu ikki so'zi zamirida tunlarini tunga, kunlarini kunga ulab, erining anor olib kelishini intizorlik bilan kutgan, qalbi g'am-hasratga to'la ayolning dardi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'z aksini topgan deyish mumkin. Adabiyotshunoslar ta'biri bilan aytganda, "Shu ikki so'z (Kambag'alchilik o'lsin!) zamirida o'sha davr yo'qsil aholi qatlamining ayanchli qismati o'zining badiiy ifodasini topgan".

Dialogning turkcha tarjimasini quyidagicha:

– *Her şeyden, buluttan nem kapılıp huzursuzluk çıkarsa... ne zorluklar çıkar, dedi Turabcan yekteğini tekrar üstüne geçirirken... fakirlik işte... yoksulluk...*

Adı batsın yoksulluğun! Kadın bu lafi yakınmak için söylemişti, ama Turabcan kınama olarak algıladı.

Tarjimonning ishga juda erkin, hatto ijodiy yondashganini turkcha tarjimini teskari ag'darib amin bo'lish mumkin:

– *Har narsani namkash devor kabi o'ziga olib behuzur bo'linaversa, qanday qiyinchiliklarga duch kelinishi mumkin, – dedi Turobjon yaktagini yana egniga kiyayotib, – kambag'alchilik, yo'qsillik...*

– *Oti o'chsin bu yo'qsillikning! Ayol bu gapni kuyinganidan aytgandi, ammo Turobjon buni bir ayblov deb qabul qildi.*

¹² Каххар Абдулла, Избранные произведения в 3-х томах. Том I. Рассказы и пьесы. Издательство литературы и искусств имени Гафура Гуляма. Ташкент: 1972. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, dialogni quyidagi shakl va mazmun yaxlitligida qayta o'g'irish maqsadga muvofiq:

Her şeyden aile hayatı acı olursa, zorluklar çıkarsa, nasıl yaşanır? – dedi Turabcan yekteğini üstüne geçirirken... Yoksulluk işte... Ne yapalım, kader buymuş... – Batsın bu yoksulluk! Karısı bu sözü yakınmak için söylemişti, ama Turabcan bunu bir kınama olarak algıladı.

Endi muqoyasa uchun dialogning ruscha tarjimasiga ham bir e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– Если обижаться на каждую мелочь, лучше не жить. Бедность ведь...

– Будь она проклята эта бедность! – тихо сказала жена. Она произнесла эти слова, сетуя на бедность, а Турабджан понял их как упрек, и у него снова закипело в груди.

Ruscha tarjimaning saviyasini baholash uchun yana teskari ag'darib ko'ramiz:

– Har bir mayda-chuyda narsaga xafa bo'lavergandan ko'ra yashamagan afzal... Yo'qsillik axir...

– Ming la'nat bunday yo'qsillikka! – dedi ayol past ovozda. U bu so'zlarni kambag'allikdan noligan tarzda aytdi, ammo Turobjon buni ta'na deb tushundi va yana qalbi o'rtanib ketdi.

Badiiy asardagi u yoki bu so'z, yoxud iboraning yanglish o'g'irilishi asarning umumiy ruhiga aytarli qadar putur yetkazmasligi mumkin, muayyan jumlaning haddan tashqari ko'p so'z bilan tarjima qilinishi ham ehtimol unchalik zararli bo'lmasligi mumkin. Yoki bo'lmasa tarjimon tajribasizlik orqasida o'z ona tilining tabiatiga muvofiq kelmaydigan jumla tuzar ekan, bu bir istisno holat bo'lganligini aytishi mumkin. Biroq ularning barchasi oxir-oqibatda muallif uslubining tarjimada to'la aks etmay qolishiga olib keladi.

XULOSA

Badiiy asar kabi barkamol tarjimaning ham yagona, imkoniyatlarga boy bo'lgan vositasi – umumxalq tilidir. Chunki har qanday tarjima asari alohida guruh kishilari yoki mutaxassis uchun emas, keng kitobxon ommasini uchun mo'ljallanadi. Muallif so'zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olgan tarjimongina so'zni shunchalik ishonchli qayta ifodalay oladi. Tarjimon asliyatdagi so'zlarning badiiy, uslubiy, milliy va estetik vazifasini hisobga olishi, so'zning ma'nosiga alohida e'tibor berishi lozim. "Demak, asar qaysi tildan tarjima qilinayotgan bo'lsa, tarjimon o'sha xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, etnografik xususiyatlaridan tashqari, frazeologik birliklarning kelib chiqishi tarixidan ham xabardor bo'lish zarur ekan". Shu bilan bir qatorda, "Yaqin tillardan o'g'irishda so'zma-so'z tarjimaning o'z o'rni borligi sir emas, biroq bu nisbiy tushuncha, qat'iy qoida emas". Chunki tillar qanchalik yaqin bo'lmasin, asliyat so'zlarini hijjalab o'g'irish to'g'ri emas va shu sababdan kerak joyda so'zma-so'z tarjimadan qochish tavsiya etiladi. Ba'zida so'zma-so'z tarjimaga murojaat qilinishi esa istisno holat hisoblanadi.